



## MILLIY IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA SHAKLLANISH BOSQICHLARI

**Madaminova Shohzoda Baxromjon qizi**

*Farg`ona Davlat Universiteti talabasi*

**Annatsiya:** *Ushbu maqola doirasida milliy iqtisodiyot, uning rivojlanishi, iqtisodiyotning shakllanish bosqichlari haqida fikr yuritilgan. Mamlakatimiz iqtisodiyoti, tadbirkorlar uchun imkoniyatlar haqida aytib o'tilgan.*

**Kalit so`z:** *iqtisodiyot, ichki bozor, milliy tovar, arzon milliy tovarlar, elektron tizim, intizomli tadbirkor, iqtisodiyot rivojlanishi.*

Milliy iqtisodiyot - ijtimoiy iqtisodiyotning mavjudlik shakli, mamlakat, davlat hududida yashovchi millat (xalqlar)ning tarixan shakllangan yoki tubdan yangilanayotgan, o'zgarayotgan va rivojlanayotgan mulkiy va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari, ular bilan shartlangan, mahalliy xususiyatlarga ham ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat sohalari, tarmoqlari, tashkilotlari, korxonalari, hududlari va mintaqalari sistemasi hisoblanadi. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida va SSSRda o'ta markazlashgan ma'muriy -davlat sotsializmi inqirozga uchrab, parchalanishi natijasida vujudga kelgan yangi mustaqil davlatlarda (Polsha, Rossiya va boshqalarda) postsotsialistik Milliy iqtisodiyotga aylanmoqda. Boshqa ba'zi postsotsialistik mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda o'ziga xos demokratik, bozorga asoslangan umumdemokratik Milliy iqtisodiyot shakllantirilmogda. [1:756 b.]

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki o'n yilida mamlakatda umummilliy va xususiy mulkchilikka asoslangan ko'p ukladli Milliy iqtisodiyot — xilma-xil xususiy va davlat xo'jaliklari sistemasi shakllandi. Unda xususiy sektor ustuvor o'ringa, asosiy mavqega ega bo'ldi. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning mutlaq ko'pchiligini yakka shaxsiy, guruh, shirkat, jamoa, aksiyali korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklari tashkil etadi, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi uchdan ikki qismdan oshib ketdi va tobora o'smoqda. Milliy ehtiyojlarni yaxshiroq qondirish zarurati iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni, tovarlar va xizmatlarning ijtimoiy zarur maksimal hajmlariga erishishni taqozo etadi. Ayniqsa, ijtimoiy zarur mahsulot (tovar) ishlab chiqarish, uni zarur miqdorlarda va sifatlarda, tabiatni asrab-avaylab, ekologiyani yaxshilab ishlab chiqarish har qanday milliy iqtisodiyotning asosiy ruknidir. Milliy iqtisodiyotning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari o'rtasida maqsadga muvofiq nisbati ta'minlanishining, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning va ko'rsatiladigan xizmatlarning mumkin qadar ijtimoiy zarur yuqori hajmlarda bo'lishining muhim sharti fan-texnika taraqqiyotini tezlashtirish, zamonaviy va samarali texnologiyalarni qo'llash, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ishlashni xohlovchi barcha mehnatga qobil kishilarning ish bilan ta'minlanishiga erishishdir. Birinchi



navbatda, moddiy ishlab chiqarish sohasini intensiv rivojlantirish, mahsulot hajmini, ayniqsa, sof mahsulot hajmini sarf-xarajatlarning va aholining o'sishiga nisbatan tezroq o'stirish Milliy iqtisodiyot va iqtisodiy taraqqiyot muammolarini hal etishning, uni uzluksiz yuksaltirishning bosh yo'lidir. Bundan tashqari Milliy iqtisodiyotning sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa va boshqa tarmoqlari ichida hamda shu tarmoqlar o'rtasida barqaror, o'suvchan tarkibiy o'zgarishlar va maqsadga muvofiq nisbatlar, mutanosibliklar bo'lishi muhimdir. Ishlab chiqarilayotgan tovarlarning va ko'rsatilayotgan xizmatlarning asosiy qismi, birinchi navbatda, ichki bozor talab-ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilishi, eng avvalo, ichki bozorni sifatli va arzon milliy tovarlar bilan to'yintirish (to'ldirish) maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga tashqi iqtisodiy aloqalarni har tomonlama kengaytirish, jahon iqtisodiyotiga tobora qo'shib borish, uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish obyektiv zaruratdir, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga, aholiga soliq yukini yengillatish, davlat byudjetini va undan qilinadigan sarf-harajatlarni optimallashtirish, inflyatsiyani jilovlash kabilar Milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga jiddiy va ijobiy ta'sir etadi. Prezidentimizning "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasining asosiy maqsadi xalqimizning kundalik hayotida ijobiy o'zgarishlarga erishishni ta'minlashga yo'naltirilganligi bilan e'tiborlidir.

Hujjatda qayd etilganidek, shu yilning o'zida yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atini 6 foizdan kam bo'lmagan darajada bo'lishi, iqtisodiyotga 275 trillion so'm kredit resurslarini yo'naltirish, shu jumladan, 41 trillion so'mlik mikromoliya xizmatlari ko'rsatilishini ta'minlash ko'zda tutilgan. Bu yuksak vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishda tadbirkorlik – biznes milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omili, deb belgilangan. Xususan, "Biznesni qo'llab-quvvatlash dasturi" doirasida 2024-yil yakuniga qadar kompleks qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirish orqali kamida 200 mingta yangi tadbirkorlik sub'ektlari, shu jumladan, 90 mingta korxon va 110 mingta yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyati yo'lga qo'yilishi, yangi ish o'rinlarini yaratish orqali 5 million aholining bandligini ta'minlash uchun zarur sharoitlar yaratilishi belgilangan. Davlatimiz rahbarining 2023-yil 15-noyabrdagi "Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori aholi va tadbirkorlik sub'ektlarini o'qitish orqali ularning biznes tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va maslahat tizimini yo'lga qo'yish va "oilaviy tadbirkor – mikrobiznes – kichik biznes – o'rta biznes" zanjiri asosida faoliyatini kengaytirish uchun qulay sharoit yaratadi.[2:516]

"Biznesni qo'llab-quvvatlash dasturi" doirasida 2024 -yil yakuniga qadar kamida 200 mingta yangi tadbirkorlik sub'ektlari, shu jumladan, 90 mingta korxon va 110 mingta yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyati yo'lga qo'yilishi, yangi ish o'rinlarini yaratish orqali 5 million aholining bandligini ta'minlash ham rejalangan. "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da tadbirkorlarga yangi qulayliklar yaratiladi. Mamlakat iqtisodiyotiga 275 trillion so'mlik kredit



resurslarini yo'naltirish, shu jumladan, 41 trillion so'mlik mikromoliya xizmatlari ko'rsatilishi ta'minlanishi, banklar tomonidan taqdim etiladigan kredit stavkalarini bozor mexanizmlari asosida 2-3 foiz bandga pasaytirish ko'zda tutilmoqda. O'zbekistonda Prezident qarori asosida 2024-yil 1-fevraldan boshlab "Tadbirkorlik sub'ektlarining barqarorlik reytingi" ham tashkil etildi. Reytingga ko'ra, tadbirkorlar faoliyati davri, rentabellik darajasi, to'lov intizomi, aholi bandligidagi o'rni va ish haqi kabi 23 ta mezon asosida 4 ta toifa belgilangan. Bu ko'rsatkichlar soliq, adliya va sud organlari ma'lumotlari asosida shakllanatiladi. Har bir tadbirkor o'z o'rni va bahosini aniq vaqtda bilib borishi mumkin bo'ladi.[3]

Reytingi yuqori tadbirkorlar uchun barcha soliq tekshiruvlari bekor qilinadi, qo'shilgan qiymat solig'i miqdori bir kunda va boshqa soliq turlari bo'yicha ortiqcha to'lov uch kunda qaytarib beriladi. Mahsulotlarni import qilishda va sotishda qo'shilgan qiymat solig'ini bojxona va soliq organlarida o'zaro hisobga olish imkoniyati yaratiladi. Kim oshdi savdolarida olingan davlat aktivlari va yer uchastkalari qiymatini bo'lib to'lash muddati 3 yildan 5 yilgacha uzaytiriladi. Bunda kamida 15 foiz miqdorida dastlabki to'lovni bir yo'la amalga oshirilganda qolgan summaga yillik foizlar hisoblanmaydi. Bunday reyting shuning uchun ham muhimki, endi tadbirkorlar faoliyatiga soliqchilar emas, elektron tizim baho beradi. Kelgusida subsidiya, imtiyoz va preferensiyalar ushbu reytingdan kelib chiqib beriladi. Ko'rsatkichi past bo'lganlar intizomli tadbirkorlar safiga kirish va ko'proq imkoniyatga ega bo'lish uchun harakat qiladi. Yana bir tomoni, bu reyting tadbirkorlarga o'z hamkorlari to'g'risida ishonchli ma'lumot beruvchi himoya tizimiga aylanadi. Ya'ni shubhali shartnomalar va insofsiz raqobatga chek qo'yilib, "yashirin" iqtisodiyot qisqaradi. Bularni hisobga olgan holda "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi"da "Tadbirkorlik sub'ektlarining barqarorlik reytingi"da eng yuqori o'rinlarni egallaganlar tajribasini ommalashtirish belgilanishi o'z ifodasini topishi maqsadga muvofiq bo'lardi, degan fikrdamiz.

2022–2026-yillardagi ustuvor vazifa sifatida, aynan iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish orqali aholi jon boshiga YaIM hajmini oshirish ko'zda tutilganligida ham o'ziga xos ma'no bor. O'tgan 5 yil, ya'ni 2017–2021-yillarda Harakatlar strategiyasi doirasida sanoatning yetakchi tarmoqlari (to'qimachilik, elektrotexnika, avtomobil sanoati, qurilish materiallari sanoati, kimyo va neft-kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, energetika kabi tarmoqlar)ni rivojlantirish strategiyalari qabul qilindi. Shuningdek, qishloq xo'jaligida erkin raqobatni ta'minlaydigan bozor tamoyillarini joriy etish, xususan paxta va g'alla yetishtirishda davlat buyurtmasini bekor qilish orqali ishlab chiqarishda iqtisodiy samaradorlik va mahsulot ishlab chiqaruvchilar manfaatdorligi oshirildi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, 2022–2026-yillarda yuqorida ta'kidlab o'tilgan yo'nalishlarda amalga oshirilgan islohotlarni samarali





davom ettirish, mavjud resurs va imkoniyatlarni safarbar etgan holda, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmini yanada oshirish, 2030-yilga borib esa, O'zbekiston jon boshiga hisoblaganda, aholi daromadlari o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kirish maqsad qilingan. Bunga esa, o'z navbatida, xususiy sektorni rag'batlantirish va uning ulushini oshirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va drayver sohalarda klaster tizimini rivojlantirish orqali erishish ko'zda tutilgan.[4]

O'z o'rnida aytish lozimki, iqtisodiyotdagi yetakchi tarmoqlarning samarali va jadal rivojlanishi mamlakatdagi YaIM hajmining ortishi va shu orqali aholi jon boshiga YaIM hajmining oshishiga ham olib keladi. Qayd etish muhimki, 2017-yilda boshlangan iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor mexanizmlari rolini oshirishga qaratilgan eng muhim iqtisodiy islohotlardan biri, bu milliy valyuta almashuv kursining bozor mexanizmlari asosida shakllanish tamoyillarini joriy etish orqali ichki valyuta bozorini bosqichma-bosqich liberallashtirilishi bilan bog'liq amaliy qadamlar bo'ldi. Shu bilan birga, pul-kredit (monetar) siyosati sohasida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirildi, jumladan to'lov tizimlari rivojlantirildi, chet el valyutasini cheklovsiz sotib olish imkoni yaratildi, naqd pul muammosi hal etildi, uzluksiz ishlovchi avtomatlashtirilgan bankomatlar faoliyati yo'lga qo'yildi. Tashqi savdoning liberallashtirilishi natijasida tashqi savdo hajmi ham jadal oshib bormoqda. Valyuta va tashqi savdoning liberallashtirilishi, iqtisodiyotga bozor mexanizmlari tamoyillarining joriy etilishi, narxlarning erkinlashtirilishi va shu bilan bog'liq boshqa islohotlar ortidan mamlakatda ichki narxlar barqarorligini ta'minlash, inflyatsiyani past darajada va barqaror ushlab turish ustuvor vazifa sifatida oldinga chiqdi. Shu bois, Taraqqiyot strategiyasida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlab, inflyatsiya darajasini belgilangan 5 foizgacha pasaytirish navbatdagi vazifa sifatida belgilandi. Zero, mamlakatda ichki narxlar barqarorligining ta'minlanishi makroiqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikning kafolati hisoblanib, bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish hamda rivojlantirish dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda zarur mezon sanaladi. Alohida e'tirof etish joizki, inflyatsiyaning past va barqaror ko'rsatkichlari, iqtisodiy o'sishdagi muvozanatni ta'minlash, ishlab chiqarish raqobatbardoshligi va aholi yashash darajasini oshirishda muhim omil sanaladi. Shu nuqtai nazardan, narxlar o'sish sur'atlarining pasayishi va barqarorlashishi davlat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biri bo'lishi lozim. Taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, 2022–2026-yillarda O'zbekistonda byudjet va tashqi qarz barqarorligini ta'minlash vazifasiga ustuvorlik berilmoqda. Sababi, mamlakatda fiskal defitsitning ortib borishi va tashqi qarzlarning xalqaro darajada belgilangan me'yorlardan oshib ketishi, albatta milliy iqtisodiyotga xavf tug'dirishi mumkin. Shuningdek, mazkur strategiyada byudjet mablag'larining samarali sarflanishini ta'minlash maqsadida mahalliy byudjetlarning imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilishi ko'zda tutilgan. Fiskal sohada belgilanayotgan mazkur ustuvor vazifalar avvalgi islohotlarning mantiqiy



davomi hisoblanib, bu bir tomondan byudjet daromadlarini oqilona shakllantirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, byudjet xarajatlarining samarali sarflanishiga sabab bo'ladi, pirovard natijada esa, mamlakatda iqtisodiy faollik ortib makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlanadi.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash lozimki, yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida kelgusi besh yillikda mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish borasida bir qator strategik vazifalar belgilangan. Xususan, tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash, biznes muhiti va zarur infratuzilmalarni yaratish bo'yicha islohotlarni davom ettirish, kambag'allikni ikki barobar qisqartirish, hududlarni rivojlantirish va agrar sohani rivojlantirishga oid vazifalarga alohida ahamiyat berilgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). - T., "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2010. - 756 b.
2. Dani Rodrik. "Globalashuv paradoksi", 2011. 516 b
3. Paul Krugman, "Trade and the National Economy" - 1986
4. James Markusen, "Trade and The Gains from Trade with Imperfect Competition" - 1989
5. Borisov YE.F. Ekonomicheskaya teoriya: ucheb. - 2-ye izd., pererab. usinovit - M.: TK Uelbi, Izdvo Prospekt, 2010. - 544 s.
6. Zubko N.M. Ekonomicheskaya teoriya. - Minsk: NTS API, 2012. 61 s.
7. I. K. Stankovskaya, I. A. Strelets. Ekonomicheskaya teoriya.: Uchebnik. / 3-ye izd., ispr. – M.: «Eksmo», 2009. – 448 s.